

**HAYRAT TO‘RAQO‘RG‘ONIY LIRIKASINING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI**

Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna,
*University of Business and Science Tillar kafedrasida dotsenti, filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori., PhD.
Ozodaxonb@gmail.com*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada shoir Hayrat To‘raqo‘rg‘oniyning nashriy manbalari, adabiy merosining lingvopoetik xususiyatlari haqida ma‘lumot berilgan. Shoir asarlarining mazmun-mohiyati hamda bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** mudarris, olim, adib, shoir, devon, bayoz, qo‘lyozma, toshbosma, nashriy manba, inventar, kolofon, xattot, sahhof, zullisonayn, antiteza, metafora.*

***Аннотация.** В данной статье представлены сведения о литературных источниках Хайрати. Подчеркнуты смысл и значение произведений поэта сегодня.*

***Ключевые слова:** мударрис, учёный, писатель, поэт, диван, баяз, рукопись, литография, издательский источник, опись, колофон, каллиграф, писец, зуллисонайн, антитеза, метафора.*

***Annotation.** This article provides information about the literary sources of Khayrat. The meaning and importance of the poet’s works today are highlighted.*

***Key words:** mudarris, scholar, writer, poet, divan, bayaz, manuscript, lithograph, publishing source, inventory, colophon, calligrapher, scribe, zullisonayn, antiteza, metafora.*

Kirish. O‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga munosib hissa qo‘shgan namanganlik shoirlar o‘zlarining boy adabiy-tarixiy merosiga ega. Hozirgi Namangan viloyati hududining Axsikent, Koson, Pop, Chust shaharlarida qadimdan adabiy-madaniy hayot rivojlangani ma‘lum. Adabiyotshunos olim A.Xalilbekov “Namangan adabiy muhiti” kitobida ilk uyg‘onish davri – IX-XII asrlar badiiy adabiyotning yuksalish davri bo‘lgani, bu asrlarda Axsikent shahridan qator yirik adabiyot va san‘at namoyandalari yetishib chiqqani hamda markazi Axsikent bo‘lgan ushbu hududda adabiy muhit shakllanib ulgurgani haqida ma‘lumot beradi [5, 16]. Bu hol, o‘z navbatida, keyingi davrlarda ham adabiyotning taraqqiy etishini ta‘minlagan.

Adabiyotshunoslikda muayyan hududda adabiy an‘analarning o‘ziga xos tarzda shakllanishi, ma‘lum bir qonuniyatlar asosida rivojlanishi, odatda, adabiy muhit istilohi orqali ifodalanadi. Biroq bunday jarayonlarning barchasini ham qamroviga ko‘ra adabiy muhit deb bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, “Tor hududlarda kechgan adabiy jarayonlarni qanday bo‘lsa o‘z holicha – adabiy doira, adabiy davra, adabiy shajara, adabiy silsila tarzida o‘rganish maqsadga muvofiq” [4, 32].

XX asr boshlarida Namanganda qaynoq adabiy jarayon kechgani ma‘lum. Nodim, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, So‘fizoda, Dog‘iy, Suhayliy kabi shoirlar ijodini o‘z ichiga olgan bu hodisani adabiy harakatchilik deb atash maqsadga muvofiq. Negaki, bu jarayon nainki Namangan hududida, butun Turkistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy

uygʻonishni boshlab bergan jadidchilik harakati va uning badiiy-estetik tafakkurga koʻrsatgan taʼsiri bilan chambarchas bogʻliqdir. XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandasi Umrzoq Xolboy oʻgʻli Hayrat Toʻraqoʻrgʻoniy shoir boʻlish barobarida xattot hamdir. Shu bois sheʼrlar majmuasi shoirning oʻz xati bilan kitobat qilingan. Hayrat zullisonayn shoir sifatida ikki – turkiy va fors tillarida ijod etgan. Lirik sheʼrlari asosan gʻazal, murabbaʼ, muxammas, musaddas, masnaviy va ruboiy janrlarida bitilgan. Bundan tashqari, “Sayohatnoma”, “Maktub”, “Muborakbodnoma” singari masnaviy asarlari shoir sheʼrlari bilan birga oʻzi tuzgan qoʻlyozma majmua va ayrim bayozlarda saqlanadi. Uning Namangan shahar “Haqiqat” mahallasida yashagan Hoshimxon Asqarov (1888-1972) shaxsiy kutubxonasida saqlangan qoʻlyozma majmuasi (Bu qoʻlyozma hozirda u kishining kenja oʻgʻli Zikriyoda saqlanmoqda) dastlabki manba sifatida eʼtirof etiladi. Sheʼrlar Qoʻqon, rus qogʻoziga qora siyoh bilan nasx, baʼzan nastaʼliq xatida yozilgan. Qoʻlyozma 256 varaqdan iborat. Tadqiqotlar natijasida shoirning yana bir sheʼrlar majmuasi borligi aniqlandi. Hozirda ushbu qoʻlyozma manba Namangan shahrida yashovchi matnshunos Ahmad Ubaydulloh shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Undagi sheʼrlar Qoʻqon, rus qogʻoziga qora siyoh bilan nasx, baʼzan nastaʼliq xatida yozilgan. Qoʻlyozma 232 varaqdan iborat.

Muhokama va natijalar. Hayratning adabiy merosi Toʻraqoʻrgʻon tuman Sayram qishlogʻida yashovchi shoirning kenja oʻgʻli Alixon Umrzoqov, Namangan shahrida yashovchi matnshunos Ahmad Ubaydulloh, Toʻraqoʻrgʻon tuman Sayram qishlogʻida yashagan Isʼhoq Pirmuhammad oʻgʻli, Namangan viloyati Chust tumanida yashagan matnshunos Dadamirza Orifboyev shaxsiy kutubxonalarida saqlanayotgan qoʻlyozma bayozlarda mavjud. Shuningdek, shoir ijodidan namunalar fargʻonalik matnshunos olim Ahmadjon Madaminovning shaxsiy kutubxonasida saqlanuvchi shoir Zoriy sheʼrlari bilan birga koʻchirilgan qoʻlyozma bayozda, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi qoʻlyozmalar fondida 1924 va 645 ashyo raqami ostida saqlanuvchi shoir Shavqiy sheʼrlari bilan birga koʻchirilgan qoʻlyozma bayozlarda ham uchraydi. Ushbu bayozlar hamda shoirning qoʻlyozma holidayi ikki sheʼrlar majmuasini eski oʻzbek yozuvidan nashrga tayyorlab, xalqimizga taqdim etish adabiyotshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardandir. Chunki shoir ijodining nashriy manbasi sifatida 1982-yilda chop etilgan “Asrlar nidosi” majmuasini koʻrsatish mumkin, xolos. Majmuaga shoirning adabiyotshunos D.Orifboyev tomonidan nashrga tayyorlangan sheʼrlaridan namunalar kiritilga [1, 432]. A.Xalilbekov Hayrat hayoti va uning lirik merosi haqidagi ayrim qarashlarini “Namangan adabiy muhiti” kitobida qayd qilgan. Ushbu manbada shoirning “Sabo, yetgur salomim”, “Afgor etding-u ketding”, “Hayrat” hamda “Oʻlmasun” kabi gʻazallari tahlil etilgan. Ushbu tahlillar natijasida muallif shoirning ijtimoiy-siyosiy mazmundagi lirik merosi unga zamondosh Muqimiy,

Furqat, Nodim, Zavqiylarning shu ruhdagi she’rlari bilan hamohang ekanini ta’kidlaydi. Shoir asarlari o’sha davrda tuzilgan ayrim bayozlarga ham kiritilganini e’tirof etadi: “A.Ubaydulloh shaxsiy kutubxonasida saqlanuvchi Bayozning 1-282 varaqlarida Hayrat she’rlari, 283-403-varaqlarida esa Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Nodim, Xilvatiy kabi shoirlarning asarlari berilgan. Bayozning tuzilgan yili haqida ta’rix bitilgan:

*Az xirad ta’rixi in kardam savol,
Guft “ashgul” az rahi sidqu safo.*

Bundagi “ashgul” so’zi abjad hisobida hijriy 1337-yilni bildiradi” [5, 20].

Demak, ushbu bayoz hijriy 1337 (milodiy 1920)-yilda tuzilgan bo’lib, unda Hayrat ijodidan namunalar uchraydi. Hayratning A.Ubaydulloh shaxsiy kutubxonasida saqlanuvchi 464 sahifadan iborat yana bir qo’lyozma asari hijriy 1320-1326-yillarda yaratilgan. Ushbu qo’lyozmadagi she’rlar alifbo tartibida joylashmagan, lekin chiroyli husnixat bilan yozilgan. Undagi she’rlar g’azal, muxammas, murabba’, masnaviy, musaddas, ruboiy, fard janrlariga oid bo’lib, qo’lyozma juda yaxshi saqlangan. Shoirning ushbu lirik merosi hali to’liq nashr etilmagan. Hayrat ma’rifatparvar shoir sifatida mumtoz she’riyatimizning barcha janrlarida ijod qilgan. Navoiy, Fuzuliy, Nodim g’azallariga muxammas bog’lagan. A.Ubaydulloh shaxsiy kutubxonasida saqlanuvchi Hayrat she’rlari jamlangan qo’lyozma alifbo tartibida, devon tuzish an’anasiga rioya qilib tuzilmagan bo’lsa-da, chiroyli husnixat bilan yozilgan. Undagi she’rlarning janr xususiyati o’rganilgach, qo’lyozmada hamd va uchta na’t (jami 84 misra), 7 ta munojot (jami 192 misra), 154 ta g’azal (jami 2712 misra), 15 ta muxammas (jami 551 misra), o’n bitta murabba’ (jami 64 misra), o’n bitta masnaviy (jami 368 misra), ikkita musaddas (jami 60 misra), 6 ta ruboiy (jami 24 misra), 29 ta fard (jami 58 misra) mavjudligi aniqlandi.

Nashr etilgan ruboiy janridagi she’rlarining barchasi *aaba* tarzida qofiyalanib, ularda shoir komillik haqida falsafiy mushohada yuritadi va rindona mazmunga ega satrlar bitadi:

*Soqiyo, navbat ila jom ketur,
No’sh etay dam tutib tamom, ketur.
G’am bila xotirim mushavvashdur,
Tark qilmay ani davom ketur [1, 432].*

Ushbu to’rtlik qo’lyozmada “ruboiy” sarlavhasida berilgan. Mumtoz she’rshunoslikda ruboiy aruzning hazaj bahrida yozilishi asosiy shartlardan biri bo’lgani ma’lum. XX asr boshlarida bu an’anadan chekinib, ruboiy boshqa bahrlarda ham ijod etilish hollari uchraydi. Hayrat ham yuqoridagi she’rni aruzning hafif bahrida, ya’ni –

V – – / V – V – / V – paradigma asosida yozgan. Bu holat shoirning to‘rtlik yozishdagi o‘ziga xos novatorligini anglatadi.

Hayrat asarlarini mavzu jihatdan quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin:

1) ishqiy; 2) axloqiy-ta’limiy; 3) ijtimoiy-siyosiy; 4) hajviy.

Hayrat ijodida ishqiy mavzudagi she’rlar salmog‘i ko‘pligi kuzatiladi. O‘z ijodini ishqiy g‘azal yozishdan boshlagan shoir mumtoz adabiyot vakillari kabi g‘azallarida ma’shuqa vasliga erishmoqni niyat qiladi. Ammo go‘zallikda tengsiz ma’shuqaning zulmkorligi, bevafoqligi, hijron va ishq azobi unga ham ozor beradi.

Hayratning ishqiy mavzudagi she’rlari ijtimoiy-siyosiy mavzuga oid ijod namunalaridan badiiy jihati yetukligi bilan ajralib turadi.

Hayrat o‘z lirik merosi haqidagi izhorini quyidagicha ifodalaydi:

*Eshitgan, o‘qug‘onga Hayratiydin armug‘ondur bu,
Dilidin, rozi ifshodin bayon ham tarjimondur bu.
Yozilgan safhai ko‘nglumga ilhomi ilohiydin,
Ki bir nozik ado dildor vasfidin nishondur bu [1, 432].*

Baytda shoir “safhai ko‘nglum” jumlasini **metafora**, “nozik ado dildor” jumlasini esa **sifatlash** vositasi bilan ifoda etgan va o‘z fikrini obrazli tasvirlashga erisha olgan. Shoirning ishq mavzusidagi nazmda majoziy ishqning haqiqiy ishqqa o‘shish tadriji kuzatilsa, ayrim g‘azallarida esa yor vaslidan masrur oshiq holati haqida so‘z boradi:

*Shukrkim, bo‘ldi muyassar vasli jonon bu kecha,
G‘unchai matlab ochilmoq birla xandon bu kecha.
Shishai dil sangi kulfatdin edi doim shikast,
Mo‘miyoi marhamatdin topdi imkon bu kecha.
Der edim, bo‘lmas magar ul dilrabo vasli nasib,
Lutfi Haq yori bo‘lib bu mushkul oson bu kecha [1, 409].*

Hayratning axloqiy-ta’limiy she’rlarida inson va tabiatga mehr, vafo va oqibat talqini yetakchilik qiladi. Bunday baytlarda shoir “**antiteza**” vositasi bilan poetik tasvir ko‘lamini kengraytiradi. Jumladan, shoir mana bu g‘azalida insonlarni o‘zaro ahil bo‘lishga chorlaydi:

*Bir-birin degan kishi payvandi jon bo‘lmoq kerak,
Talx so‘zini qo‘yib, shirinzabon bo‘lmoq kerak.
Do‘st-u dushman o‘rtasida farqi shuldur, ey ko‘ngul,
Lutfu shafqat birla doim mehribon bo‘lmoq kerak [1, 429].*

“Talx so‘z” va “shirinzabon” so‘zlari orqali hosil qilingan **antiteza** bayt mazmunining ta’sir kuchini oshirishi barobarida “bo‘lmoq kerak” radifi va “jon” – “shirinzabon” so‘zlari hosil qilgan qofiya bilan birgalikda baytdagi poetik mukammallikni ta’minlagan. Shoirning ushbu mavzudagi ijodi ruboiylarida ham davom

etadi. Ularda shoir Yaratgandan dard ahliga hamroh va yomon kimsalardan yiroq bo‘lishni so‘raydi:

*Yorab, ahli dard ila hamroz qil,
Munis-u hamsuhbat-u damsoz qil.
Qilma har nojins ila hamdam mani,
Ulfati ahli salohi soz qil [1, 432].*

Hayratning tatabbu’ va taxmislari, shuningdek, Haziniyning “Tong otquncha” g‘azaliga bog‘lagan nazirasi el orasida mashhur. Sakkiz baytdan iborat ushbu g‘azal qofiyasidagi “so‘zona”, “biryona”, “parvona”, “pinhona”, “hijrona”, “shohona”, “hamxona”, “poyona” va “devona” kabi so‘zlardan shoir o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashda o‘rinli foydalangan:

*Furqatda kuyib bo‘ldim so‘zona tong otquncha,
Jism ichra bo‘lib jonim biryona tong otquncha.
Vasling ila shod erdi mahzun dilim, ey mahvash,
Husningni charog‘iga parvona tong otquncha [1, 413].*

Xulosa. Shoir g‘azallari, asosan, yetti, sakkiz, to‘qqiz baytli bo‘lib, uning ijodida o‘n bir, yigirma bir baytli g‘azallar ham uchraydi. Uning “*Shukrkim, bo‘ldi muyassar vasli jonon bu kecha*” deb boshlanuvchi yakpora g‘azali yigirma bir bayt hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda g‘azal janri uch baytdan yigirma uch baytgacha uchrashi e’tirof etilgan [3, 250]. Ushbu g‘azal ko‘pbaytli g‘azallarga xos xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan. Jadid she’riyatida bunday ko‘pbaytli g‘azallar, asosan, ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy mavzudagi g‘azallar doirasida uchraydi. Ammo shoirning ishqiy mavzuda yaratilgan ayrim g‘azallari ko‘pbaytli ekani kuzatiladi. Bu esa uning ishqiy-ma’rifiy g‘azallarida davr ruhiyati tasviri ham aks etganini anglatadi.

Hayrat xalq ongini millatparvarlik ruhida shakllanishi va rivojlanishi, maorif va madaniyatning yuksalishi uchun sermahsul ijod qilgan. Adabiy asarlari orqali yoshlarimizni ona-Vatanga sadoqatli, ilm-ma’rifatli va ijtimoiy hayotda faol bo‘lishga chaqirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Асрлар нидоси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982. – Б. 408-432.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 385.
3. Носиров. О. Ўзбек адабиётида ғазал. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 194 б; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 250 б.
4. Нусратулло Атоулло ўғли Жумахўжа. Миллий мустақиллик мафкуриси ва адабий мерос (XVII-XIX асрлар ўзбек шеърини асосида): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 32.
5. Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Тошкент: Руҳафзо, 1998. – Б. 16.